

Xushxabar: "Maxam-Chirchiq" AJ "Qadring baland bo'lsin, ona tilim" respublika tanlovining 2-o'rin sohibi!

// 14 October 2024 yil

<https://special.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/xushxabar-maxam-chirchiq-aj-qadring-baland-bo-lsin-ona-tilim>



Bugun Yozuvchilar uyushmasining katta marosimlar zalida vazirlik, hokimlik, tashkilot va idoralar rahbarlarining davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchilari ishtirokida "Qadring baland bo'lsin, ona tilim!" respublika tanlovi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashabbusi bilan o'tkazilgan ushbu tanlovda "Maxam-Chirchiq" AJ tanlovning "Davlat tilida ish yuritish yo'lga qo'yilgan eng yaxshi vazirlik, idora, tashkilot tizimi" yo'nalishida 2-o'rinni egalladi.

"O'zkiyosanoat" AJ "Maxam-Chirchiq" AJ jamoasini ushbu e'tirof bilan tabriklaydi. Jamiyatimiz va tizim korxonalari davlat tilimizning mavqeini yuksaltirishda davom etadi.



"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati